

## MOTIVATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNINI KO'RSATIB BERUVCHI OMILLAR

Xalboyeva Gulnoza Arshidinovna

KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası v/b dotsenti PHD

Abdusalomova Maftuna Abror qizi

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20226047>

**Annotatsiya:** Maqolada motivatsiya tushunchasi, uning inson faoliyatidagi o'рни va ahamiyati, ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Motivatsiya turlari, ichki va tashqi omillari hamda shaxs rivojidagi o'рни yoritib beriladi. Shuningdek, motivatsiyani oshirish usullari, maqsadga erishishda uning roli va zamonaviy dunyoda insonlar hayotidagi o'рни misollar bilan tushuntiriladi. Maqolada motivatsiya insonning muvaffaqiyatga erishishdagi asosiy omillardan biri ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, motiv, shaxs, ijtimoiy norma, sanksiyalar, maqsad, psixologiya, o'z-o'zini baholash, muvaffaqiyat, rag'bat .

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие мотивации, ее роль значение в деятельности человека. Подробно анализируются виды мотивации, ее внутренние и внешние факторы, а также влияние на развитие личности. Кроме того, рассматриваются способы повышения мотивации, ее значение в достижении целей и роль в жизни современной молодежи. В статье обосновывается что мотивация является одним из ключевых факторов достижения успеха.

**Ключевые слова** :Мотивация, мотив, личность, социальная норма, санкции, психология, целей, самооценка, успех, стимул.

**Abstract:** This article examines the concept of motivation, its role and importance in human activity the types of motivation, its internal and external factors, and its influence on personal development are analyzed in detail. In addition, methods of increasing motivation, its importance in achieving goals, and its role in the life of modern youth are discussed, the article substantiates that motivation is one of the key factors in achieving success.

**Keywords:** motivation, motive, personality, social norm, sanctions, goal psychology, self-assessment, success, incentive.

**Kirish:** motivatsiya inson faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Har qanday ishni boshlash davom ettirish va yakunlash uchun insonda ma'lum bir ichki yoki tashqi turtki bo'lishi kerak. Aynan shu turtki motivatsiya deb ataladi.

Bugungi kunda motivatsiya masalasi nafaqat psixologiyada, balki ta'lim va boshqa sohalarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki insonning samarali ishlash, o'z maqsadlariga erishish va rivojlanishi hamda maqsadlariga erishishi bevosita uning motivatsiya darajasiga bog'liq.

Mening fikrimcha, motivatsiya faqat nazariy bilim emas, balki har bir insonning kundalik hayotida amalda sinovdan o'tadigan ichki kuchidir. Motivatsiyasiz inson o'z qobiliyatlarini to'liq bila olmaydi. Rivojlangan jamiyatda tezkor o'zgarishlar, raqobatning kuchayishi va turli imkoniyatlarning paydo bo'lishi insondan doimiy harakat qilishni va tinimsiz ishlashni talab qiladi. Bunday sharoitda esa motivatsiya eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Insonning muvaffaqiyatga erishishi ko'p jihatdan bilim va ko'nikmalarga, yana uning ichki intilishiga ham bog'liqdir. Motivatsiya shaxsni faol harakatga va yangi marralarga undaydi,

maqsad sari qat'iyat bilan borishga yordam beradi. U qiyinchiliklarni yengishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois motivatsiyani anglash va uni rivojlantirish har bir inson uchun zarurdir.

Men o'ylaymanki, muvaffaqiyatga erishishda eng muhim omil bu doimiy harakat va o'z ustida ishlashdir. Hatto bilim yetarli bo'lmagan holatda ham kuchli motivatsiya insonni katta natijalarga olib chiqishi mumkin.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning nafaqat faoliyatiga, balki uning o'z-o'ziga munosabatlarini ham shakllantiradi. Psixologiyada inson faoliyatini belgilovchi asosiy motivlardan biri-muvaffaqiyatga erishish motivi va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motividir. Bu ikki turdagi motivlar shaxsning xatti-harakatlari, qaror qabul qilish hamda faoliyatidagi natijalarga turlicha tasir ko'rsatadi. Faqat muvaffaqiyatga erishish motivi bilan ishlaydigan odamlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydiki, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirsa, odamlar ularning barcha harakatlarini maqullashini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat barcha o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar - tanish bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

Boshqacha xulq-atvorni muvaffiqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Ular ishni boshlashdan oldin nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ulardan ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir -oqibat ular baribir muvaffaqiyatsizlikka uchrab, “ O'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da” degan xulosaga keladilar.

Biroq bu ikki motiv bir-biriga qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, ular bir shaxsda bir vaqtning o'zida ham mavjud bo'lishi mumkin. Faqat ularning qaysi biri ustun kelishi insonning umumiy psixologik holatini ijtimoiy muhitini va shaxsiy tajribasini belgilaydi. Agar insonda muvaffaqiyatga erishish motivi kuchli bo'lsa, u faol, tashabuskor va natijaga yo'naltirilgan bo'ladi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi kuchli bo'lsa, u ehtiyotkor, passiv va ko'proq xavfsiz yo'llarni tanlashga moyil bo'ladi.

**Metodologiya:** Ushbu maqolada adabiyotlarni tahlil qilish, solishtirish va kuzatish metodlaridan foydalanildi.

Motivatsiya tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Psixologiyada motivatsiya insonni muayyan faoliyatga undovchi ichki va tashqi ommillar majmuyi sifatida qaraladi. Ichki motivatsiya – insonning o'z qiziqish va ehtiyoji asosida harakat qilishi.

Tashqi motivatsiya–mukofot, rag'bat yoki bosim orqali yuzaga keladigan motivatsiya.

Ba'zida tadqiqotchilar ichki motivatsiyani eng samarali deb hisoblaydi, chunki u insonni uzoq muddat davomida faol bo'lishga undaydi. Tashqi motivatsiya esa qisqa mudatli natijalarga olib kelishi mumkin. Motivatsiya psixologiya fanida turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi.

Jumladan, Maslow tomonidan ilgari surilgan ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariasiga ko'ra inson faoliyati muayyan ehtiyojlar tizimi bilan belgilanadi. Ushbu nazariyada motivatsiya past darajadagi fizologik va xavfsizlik ehtiyojlaridan boshlab, yuqori darajadagi ijtimoiy hurmat hamda o'zini-o'zi namoyish etish ehtiyojlarigacha bosqichma - bosqich rivojlanishi takidlanadi. Mazkur yondashuv motivatsiyani tizimli va ierarxik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Sigmund Freud tomonidan asos solingan psixologik nazariyada motivatsiya insonning ongsiz jaroyonlari bilan izohlanadi. Unga ko'ra, inson xulq - atvorlari ko'pincha ong ostida shakillanuvchi instinktlar, ehtirolar va ichki ziddiyatlar tasirida yuzaga keladi. Freud nazariyasi motivatsiyaning irratsional va chuqur psixologik omillarga bog'liqligini asoslab bergan.

**Muhokama:** Motivatsiya inson hayotidagi barcha sohalarida muhum rol o'ynaydi. U o'qishda, ishda, sportda va hatto kundalik hayotda ham zarur. Motivatsiya yuqori bo'lgan insonlar o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi va unga erishish uchun qattiq harakat qiladi. Masalan, o'quvchini olaylik. Agar o'quvchida o'qishga nisbatan motivatsiya yuqori bo'lsa, u bilim olishga intiladi, vazifalarni o'z vaqtida bajaradi va o'z ustida tinimsiz ishlab, yuqori natijalarga erishadi. Aksincha unga motivatsiya yetishmasa, u tezda charchaydi va o'qishga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi.

Menimcha, hozirgi zamonda yoshlarning motivatsiyasi ko'pincha tashqi omillarga bog'lanib qolmoqda. Aslida esa, ichki motivatsiyani rivojlantirish har bir insonning o'z qo'lida. O'quvchi faqat baho uchun emas, bilim uchun o'qishni o'rgansa, natijalar ancha barqaror bo'ladi.

Motivatsiyaning shakillanishi ko'plab omillarga bog'liq. Avvalo, shaxsning individual xususiyatlari – temperament, xarakter, qiziqish va ehtiyojlar muhum rol o'ynaydi. Bundan tashqari ijtimoiy muhit, oila ta'lim tizimi ham motivatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida motivatsiyaning shakillanishida ta'lim muassasalari, oila, pedagoglarning roli muhimdir.

Motivatsiya va maqsad o'rtasida uzviy bog'liqlik bor. Aniq va real maqsadlar insonda kuchli motivatsiya uyg'otadi. Aksincha, noaniq yoki haddan tashqari murakkab maqsadlar motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli maqsadlarni bosqichma- bosqich belgilash va ularga erishish jaroyonini nazorat qilish muhimdir.

Menimcha, maqsadsiz motivatsiya uzoq davom etmaydi. Shuning uchun har bir inson o'z oldiga aniq reja qo'yishi kerak.

Motivatsiyani oshirishda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon insonning o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini boshqara oladigan shaxslar odatda yuqori motivatsiyaga ega bo'lib, ular o'z maqsadlariga erishishda yuqori natijalarga erishadi.

**Natijalar:** Tadqiqot jarayonida motivatsiyaning shaxs faoliyatidagi o'rni va uning shakillanish mexanizimlari chuqur tahlil qilind. Olingan natijalar motivatsiyalar inson faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan shaxslar o'z faoliyatida barqarorlik intiluvchanlik, qat'iyat va o'z maqsadiga erishish qobiliyatiga ega bo'lishadi.

Motivatsiyani shakillanishida ijtimoiy muhitning ahamiyati alohida e'tborga loyiq.

Qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhit mavjud bo'lgan sharoitda shaxsning ichki faolligi ortadi, aksincha, salbiy muhit motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, oila va ta'lim muassasalarining ta'siri motivatsion jarayonlarda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, motivatsiya inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. U insonni harakatga undaydi, maqsad sari yetaklaydi va muvaffaqiyatga erishishda muhim rol

o'ynaydi. Har bir inson o'z motivatsiyasini rivojlantirishga e'tibor qaratishi kerak. Buning uchun esa aniq maqsad qo'yish, o'ziga ishonchni oshirish va doimiy ravishda o'z ustida ishlash zarur. Motivatsiya – bu insonning ichki kuchi bo'lib, u orqali inson o'z orzularini ro'yobga chiqaradi.

Shuni aytishim mumkinki, har bir inson o'z ichki motivatsiyasini topa olsa, u hayotdagi deyarli barcha to'siqlarni yenga oladi. Motivatsiya — bu insonni o'z orzulariga yaqinlashtiradigan eng kuchli psixologik quroldir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. T.E.Eshquvvatov, Umumiy Psixologiya, Kattaqo'rg'on, 2024 .
2. F.I Xaydarov, Umumiy Psixologiya, Toshkent, 2009 .
3. P.I Ivanov, Umumiy Psixologiya, Toshkent, 2008 .